QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASI ELLIKQALA RAYONÍ HÁKIMINIŃ SH E SH I M I

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI ELLIKQAL’A TUMANI HOKIMINING Q A R O R I

2025-yil 25-fevral | 33-13-194-Q/25 | Ellikqal’a tuman hokimligi

Ellikqal’a tumani hududida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi 2024-yil 19-yanvar kungi “Yo‘l harakati to‘g‘risida”gi O‘RQ-900-sonli Qonunining 8-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi talablariga asosan Ellikqal’a tumani hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha profilaktik ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Ellikqal’a tuman hududida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l- transport hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzili 1-ilovaga asosan tasdiqlansin hamda mazkur yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo‘limi (Q.Uzaqbayev), tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi (B.Qo‘chqarov) va tuman yo‘llardan foydalanish korxonasi (J.Xodjabayev)larga tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l- transport hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilarini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

3. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Seitov zimmasiga yuklatilsin.

Ellikqal’a tumani hokimi **V.Niyazimbetov**

Ellikqal’a tuman hokimining
2025-yil 25-fevraldagi
33-13-194-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Tuman hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarini oldini olish maqsadida o‘rnatilishi lozim bo‘lgan yo‘l belgilari va manzilli

RO‘YXATI

№	Yo‘l belgisi o‘rnatilgan manzil nomi	Yo‘l belgisini nomi
1.	Tumandagi “A.Navoiy” MFY hududida joylashgan “Adliya bo‘limi” oldidan o‘tuvchi D239 “A380 a/yo‘li (661 km)-Qizilqal’a ovuli-Bo‘ston sh.-Guldursun q.-To‘rtko‘l sh.” avtomobil yo‘lining 28,6 - 29 km oralig‘iga.	3.27 “To‘xtash ta’qiqlangan”